

ISLOMIY BANKLARNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHKIL ETILISHIDAGI AHAMIYATI

Xasanov Ahmad Shodiyorovich

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti o'qituvchi, assisenti

Aralov Mirjalol Dilshod o'g'li

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Aniq va tabiiy fanlar fakultet talabasi

Berdiqulov Murodjon Bobir o'g'li

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Aniq va tabiiy fanlar fakultet talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan O'zbekiston Respublikasida islomiy tamoyillarga asoslangan, hozirgi kunga kelib mamlakatimizda islom qonun-qoidalar asosida bank xizmatlarini tashkil etish va tashkil etishda yuzaga keladigan kamchiliklar va yutuqlar haqida, jumladan to'g'risida so'z olib boriladi.

Kalit so'zlar: Islomiy banklar, ribo, foiz, Markaziy bank, Islomiy tamoyillar, murobaha, vadiya, mushoraka, mudorabah, lizing

KIRISH

Islom banki, islomiy moliya – (Islom qonunlari) va uni islom iqtisodini rivojlantirish orqali amalda qo'llashga mos keladigan bank yoki moliyalashtirish faoliyati. Islomiy bank yoki moliyaning ba'zi usullari orasida Mudarabah (foydani taqsimlash va zarar ko'rish), Vadiya (xavfnisqalash), Musharaka (qo'shmakorxona), Murabaha (narx-plyus) va Ijara (lizing) kiradi. Shariat barcha qarzlar bo'yicha to'lanadigan foiz sifatida ta'riflangan riboni yoki sudxo'rlikni taqiqlaydi (garchi ba'zi musulmonlar foiz ribaga teng ekanligi to'g'risida yakdil fikr bormi yoki yo'qmi, deb bahslashsa ham). Islom tamoyillariga zid deb hisoblangan (masalan, cho'chqa go'shti yoki spirtli ichimliklar) tovarlar yoki xizmatlar ko'rsatadigan korxonalarga sarmoya kiritish ham harom ("gunoh va man etilgan").

Bu taqiqlar islomga zid odatlarning oldini olish uchun musulmon mamlakatlari yoki jamoalarida tarixan turli darajada qo'llangan. Hozirgi kunda hayotimizda bank va moliyaviy sohalar juda muhim o'rin egallamoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizda va yer yuzida barcha banklarning foizlari turli xil ko'rinishda aks ettirilgan. Albatta hozirgi kunda banklarning kundalik tarzimizdagi o'rni juda

muhim va ahamiyatli. Aytishimiz mumkinki, biror inson tadbirkorlik faoliyatini yoki biror ishni o'z foydasiga hal qilish uchun malumki moddiy tomonlama yordam olish uchun banklarga murojat qiladi. To'g'ri banklarda kredit berish jarayonida o'ziga yarasha foiz ustamalari mavjud. Lekin mana shunday foizli kreditlarni kamaytirish yuzasidan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrdagi murojatnomasida Islomiy tijorat banklari yurtimizda faoliyat olib borishini ta'kidlab o'tgan edi. Xususan, davlat mablag'lari hisobidan imtiyozli bank kreditlari ajratish amaliyotini tubdan takomillashtirish, banklardagi davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish, tijorat banklarida islomiy darchalarni ochish, bu borada malakali islom xizmatlarini yo'lga qo'yish kabi ilg'or fikrlar ilgari surildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953 Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida" amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq mamlakatimiz iqtisodiyoti, ijtimoiy sohasi va davlat boshqaruvida zamonaviy ilm-fan yutuqlari shuningdek, raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha innovatsion chora-tadbirlar va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, va yana shu bilan bir qatorda, bank-moliya tizimini isloh qilish va bu sohada zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish kabilar rejaga kiritildi. Shu nuqtayi nazarda Islomiy bank faoliyatni tashkil etish bo'yicha taklif va fikrlar ushbu maqolada so'z yuritiladi.

ASOSIY QISM

20-asr oxirida islomiy o'ziga xoslikni qayta tiklash doirasida bu tamoyillarni musulmon jamiyati ichidagi xususiy yoki yarim xususiy tijorat muassasalariga tatbiq etish uchun bir qancha islom banklari tashkil etilgan. Ularning soni va hajmi oshib bordi, shuning uchun 2009-yilga kelib dunyo bo'ylab islom tamoyillariga mos keladigan 300 dan ortiq bank va 250 ta investitsiya fondlari 2022-yilga kelib 4 trillion dollar atrofida bo'ldi. Shariatga mos moliyaviy institutlar jami jahon aktivlarining taxminan 1% ni tashkil etdi, Ko'rfaz hamkorlik kengashi (GCC) mamlakatlari, Pokiston, Eron va Malayziyada jamlangan. Islom banki hali ham musulmonlar bank aktivlarining atigi bir qismini tashkil etsa-da, tashkil topganidan beri u butun bank aktivlariga qaraganda tezroq o'sib bormoqda va bundan keyin ham shunday davom etishi kutilmoqda. Islom bank tizimi bugungi kunda dunyodagi eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Islom bank tizimini joriy etish masalasi tadbirkorlarimiz uzoq yillardan beri kutayotgan masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Islomiy banklarning faoliyati islom qonun-qoidolari, axloqiy qadriyatlari va qadriyatlar tizimiga mos keladigan va Islom shiati tomonidan belgilab qo'yilgan

tamoyillar asosida boshqariladigan bank tizimi sifatida ta'riflanadi. Bunday banklar islom shariatida taqiqlangan foizga asoslangan operatsiyalarni amalga oshirmaslik, islom shariatidagi axloqiy va ijtimoiy bo'lmagan amaliyotlardan qochishga ham asoslangan. Umuman oladigan bo'lsak Islom bank faoliyati - bu oddiy pul kreditini moddiy aktivlar va real xizmatlarga asoslangan operatsiyalarga aylantirishdir. Islom bank tizimi modeli iqtisodiy farovonlikka erishishga yordam beradigan tizimga erishishga olib keladi.

Islomiy banklarning asosiy mazmun mohiyati shundan iboratki, u islom olamida yetakchilik qiladi va Islom qonun-qoidalariga ko'ra, islomiy banklarning faoliyati foizlar bilan bog'liq operatsiyalar bilan shug'ullana olmaydi. Qolaversa, bunday banklar botil (islom dinida harom mahsulotlar) bo'lgan har qanday bitimni amalga oshira olmaydilar. Islom banklari asosiy e'tiborni shariatga mos keladigan investitsiya vositalari orqali daromad olishga qaratadi. Islom shiati kapitalning daromadini uning samaradorligi bilan bog'laydi. Shariat doirasida faoliyat yurituvchi islom banki operatsiyalari turli islomiy moliya usullari shartnomalaridan foydalangan holda savdo va investitsiya jarayonlarining natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikni taqsimlashga asoslangan.

Islom banki operatsiyalarini amalga oshirishda kamida oltita asosiy tamoyil hisobga olinadi. Ushbu tamoyillar esa quyidagilar¹:

1. Shartnomaning majburiyatligi: Islomiy bank operatsiyalarini amalga oshirishdan oldin, qarama-qarshi tomonlar ushbu bitimning Islom shiati nuqtai nazaridan halol (haqiqiy)ligini qondirishlari kerak. Bu shuni anglatadiki, islom bankining operatsiyasi haqiqiy emas yoki bekor bo'lmasligi kerak. Shariat hukmlariga ko'ra o'z mohiyatiga ko'ra haqiqiy emas bo'lgan shartnoma haqiqiy bo'lmagan shartnomadir. Vaholanki, bekor qilinishi mumkin bo'lgan shartnoma tabiatan haqiqiy bo'lgan shartnoma bo'lib, lekin ba'zi noto'g'ri tarkibiy qismlar amaldagi shartnomaga kiritilgan. Agar ushbu haqiqiy bo'lmagan komponentlar amaldagi shartnomadan chiqarib tashlanmasa, shartnoma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

2. Xavfni taqsimlash: Islom huquqshunoslari Payg'ambarimiz Muhammad (SAV)ning so'zlaridan ikkita asosni olishgan. Bular "Alxiraj Biddaman 21" va "Alg'unun bilghurum 22"dir. Ikkala tamoyil ham o'xshash ma'noga ega, agar ushbu foyda olgan shaxs mulkchilik xavfini o'z zimmasiga olmasa, aktiv yoki kapitaldan hech qanday foyda olinmaydi. Shunday qilib, har bir islom banki operatsiyasida islomiy moliya instituti va/yoki uning depozit egasi moddiy aktivlarga, real xizmatlarga yoki kapitalga egalik qilish tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi va undan foyda olishdan oldin.

¹ Islamic Development Bank, Islamic Research And Training Institute, Islamic Banking: Answers To Some Frequently Asked Questions, Mabid Ali Al-Jarhi And Munawar Iqbal, Occasional Paper No.4, 1422h, 2001

3. Ribo/foiz yo'qligi: Islom banklari ribo/foiz bilan bog'liq operatsiyalarda qatnasha olmaydi. Ular qo'shimcha daromad olish uchun qarzga pul bera olmaydilar. Biroq, yuqoridagi 2-bandda aytilganidek, u moddiy boyliklar, real xizmatlar yoki kapital tavakkalchiligini o'z zimmasiga olgan holda foyda oladi va bu foyda/zararni o'z kapitali xavfini o'z zimmasiga olgan omonat egalariga o'tkazadi.

4. Iqtisodiy maqsad/faoliyat: Islom bankining har bir operatsiyasi muayyan iqtisodiy maqsad/faoliyatga ega. Bundan tashqari, islom banki operatsiyalari moddiy aktivlar yoki real xizmatlar bilan ta'minlanadi.

5. Adolatlilik: Islom bank ishi o'z operatsiyalari orqali adolatni singdiradi. Shubhali shartlarga asoslangan operatsiyalar islom bankining bir qismiga aylanmaydi. Bitimlarga kiritilgan barcha shartlar shartnomada/kelishuvda to'g'ri ochib berilgan.

Ba'zi mavzular yoki faoliyatlar mamlakat qonunlari bilan ruxsat etilgan bo'lishi mumkin, lekin agar shariat bunga ruxsat bermasa, ularni islom banki moliyalashi cheklanish mumkin

Islomiy banklarning O'zbekiston Respublikasi hukumati va eng asosiysi shu mamlakat aholisi uchun foydali tomonlari an'anaviy banklardan ko'ra ancha yuqoriroqdir. Nazarimda O'zbekistonda islom bankchiligining rivojlanishi esa juda tez sur'atda bo'ladi. Bunga sabab qilib shuni aytishim mumkinki, O'zbekiston aholisining qariyb 90 foizini musulmonlar tashkil qiladi va shu faktning o'zi O'zbekistonda Islomiy moliya va bankchilikka bo'lgan qiziqishning qanchalik katta ekanligidan dalolat beradi. Bizga ma'lumki, Islomda sudxo'rlik, ya'ni pulni foizga berish orqali foyda olish ta'qiqlangan, an'anaviy bank tizimi esa foizlarga tayanadi. Diniy e'tiqodlarga tayangan, foiz, kredit va shu kabi bank xizmatlaridan foydalanishni istamagan aholi qatlami uchun Islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan bank xizmatlari taklif etilsa, bu O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi va ichki investitsiya hajmining ortishiga katta turtki bo'ladi, deb bema'lol ayta olamiz. Bu tizimni joriy qilinishi O'zbekistonda jamg'arma va foydalanilmayotgan pul mablag'larini bank tizimiga jalb qilish, xufyona iqtisodiyot salmog'ini kamaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qayta ishlash va iqtisodiyotning boshqa sohalarida ishlab kelayotgan korxonalar o'z faoliyatlarini yanada rivojlantirish uchun foydalidir.

Xususan, 50-maqsadda bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish, banklarni xususiylashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini

takomillashtirish, kamida 3 ta tijorat banklarida Islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, Islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish belgilangan.

Albatta, qarorda belgilangan vazifa va ko'rsatkichlar strategiya maqsadlarini amalga oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi²

Mahalliy banklar yoki turli xil xususiy kompaniyalar yordamida Murobaxa (islomiy moliyaviy amaliyotda ishlatiladigan savdo shartnomasi) usuli orqali bir qancha loyihalar amalga oshirilyapti, bundan tashqari bir qancha xususiy va aksiyadorlik kompaniyalari orqali Islom tamoyillariga to'g'ri keladigan muddatli sotish yoki lizingga asoslangan xizmat turlarini ham taklif etmoqdalar. Bunda mijozlarga foizsiz lizing shartnomasi, ya'ni asbob-uskunalarni sotib olishda ularning ustiga kompaniyaning ustama haqini qo'ygan holda muddatli bo'lib-bo'lib to'lib berish orqali mablag'larni qaytarish imkoniyati mavjud. Shu kabi shartlarda, lizing kompaniyalar va bir qancha xususiy tadbirkorlar avtomobil, ko'chmas mulk va maishiy texnikalarni muddatli to'lov asosida sotish xizmatlarini yo'lga qo'yganlar. Islomiy banklar ham ijara, bo'lib to'lab berish sharti bilan sotish va istisno tarzida hukumat loyihalarini ham moliyalashtirib keladi. Biroq O'zbekistonda mahalliy tijorat banklari tomonidan shariatga muvofiq moliyalashtirish uslublari mavjud emas. Bunga asosiy sabab O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan qonunchilikning yo'qligi va mavjud qonunchilikda bu tizimni ishlashi uchun nomutanosibliklarning mavjudligidir. Shu bilan bir qatorda, taxminan ikki yil ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining islomiy bankchilik tamoyillarini O'zbekistonda tatbiq etish to'g'risidagi qarori loyihasi e'lon qilingandi va O'zbekiston Respublikasi normativ-xuquqiy hujjatlari loyihalarini muhokama qilish portalida qaror loyihasi keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi. Mazkur qarorni ishlab chiqish yuzasidan bir qator mahalliy va xorijiy ekspertlar tomonidan fikr va mulohazalar bildirildi. Jamoatchilik tomonidan bu fikr ma'qullandi va ko'p qiziqish uyg'otdi.

Agarda bunday banklar O'zbekistonda ish faoliyatini boshlasa, u holda Islomiy bank tamoyillari aholi jamg'armalarini bank tizimiga jalb qilishga yordam berishidagi asosiy narsa, Islomiy bankning mudoraba(investitsiya) depoziti sheriklar o'rtasida foyda taqsimlanishi bo'lib qoladi va moliyaviy munosabatlarda ijtimoiy adolatga asoslangan hamkorlikning yaqqol namunasi darajasiga chiqadi. Aynan shu tamoyilning o'zi aholi jamg'armalarini islomiy banklarga, biron bir loyihaga pul qo'yishi va bundan foyda olishi uchun turtki bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylayman. Bundan tashqari, islomiy banklarning moliyalashtirish mexanizmlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki, aholining moliyalashtirishga muhtoj qatlami

² "O'zbekiston — 2030» strategiyasi

ham mablag'ga ega bo'lib, undan foyda olishni ko'zlayotgan tomon ham birdek manfaatdordir.

XULOSA

Ma'lumotlarni tahlil qilgan holda bir necha xulosaga kelishimiz mumkin. Mamlakatimizda islom tamoyillariga asoslangan banklarning ochilishi, hozirgi kundagi tijorat banklarimizdagi kredit olish bilan bog'liq jarayonlarda raqobat yuzaga kelishi va muqobili variant bo'lishini aytishimiz mumkin. Ikkinchidan, mamlakatimiz aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil etgani uchun islom banki yoki islomiy bank xizmatlari tashkil etilsa, bankda omonatchilar soni keskin ortadi. Bu, o'z navbatida, naqd pul mablag'larining bank orqali aylanishi va inflyatsiya darajasini pasaytirish imkonini beradi. Uchinchidan, qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Eng muhimi, bugungi kunda jahonda jadal rivojlanayotgan tizimni o'rganish, amaliyotga tatbiq etish va undan mamlakatimiz kelajagi uchun naf keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Parlamentga murojaatnomasi
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953 Farmoni.
3. Islamic Development Bank, Islamic Research And Training Institute, Islamic Banking: Answers To Some Frequently Asked Questions, Mabid Ali Al-Jarhi And Munawar Iqbal, Occasional Paper No.4, 1422h, 2001

Internet saytlar:

- 4.islommoliyasi.uz
5. lex.uz